

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-may oylarida, Tashkent shahrida jami 25 922,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	25 922,1	115,2
Bektemir	972,1	211,1
Mirzo Ulug'bek	2 704,4	105,6
Mirobod	1 930,8	102,4
Olmazor	1 492,4	106,1
Sergeli	733,7	114,8
Uchtepa	772,8	101,4
Chilonzor	1 446,5	119,0
Shayxontoxur	1 632,1	123,7
Yunusobod	3 101,9	102,6
Yakkasaroy	2 394,4	151,5
Yangi xayot	569,4	138,3
Yashnobod	2 018,8	116,0
Taqsimlanmagan hajim	6 152,6	111,9


Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-may oylarida Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarinining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 88,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 17,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 163,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	4 085,8	2 676,8	1 845,1
o'sish sur'ati, %	108,6	198,7	276,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	9 283,1	2 425,9	2 735,2
o'sish sur'ati, %	107,3	114,8	128,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	2 870,1	-	-
o'sish sur'ati, %	123,7	-	-

Mavzuga doir ko'satkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 25 922,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni va ularning umumiyligi hajmdagi ulushi 5,7 % ga ko'payib, 33,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etgan holda 14 444,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 11,1 % ni yoki 2 870,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	8 607,7	14 444,2	2 870,1	139,3	104,6	113,9
Bektemir	741,1	175,1	55,9	542,6	60,6	158,5
Mirzo Ulug'bek	475,2	2 079,3	150,0	89,6	111,4	90,2
Mirobod	795,6	960,6	174,6	120,7	84,8	186,8
Olmazor	491,2	928,2	73,0	123,3	101,2	80,2
Sergeli	102,7	470,5	160,6	82,7	116,6	144,6
Uchtepa	117,6	500,6	154,7	72,0	97,1	188,3
Chilonzor	407,4	971,5	67,5	192,6	105,9	78,2
Shayxontoxur	967,3	583,1	81,7	127,6	120,0	108,1
Yunusobod	1 537,5	1 472,5	91,8	89,1	124,3	81,8
Yakkasaroy	1 147,4	1 161,3	85,8	494,0	91,3	113,1
Yangihayot	240,9	226,9	101,6	179,5	119,2	116,4
Yashnobod	472,4	1 456,9	89,5	179,7	106,7	79,6
Taqsimlanmagan hajim	1 111,4	3 457,8	1 583,4	131,9	105,9	113,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Bektemir tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 5,4 m.), Yakkasaroy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 4,9 m.), Chilonzor tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 192,6 %) va Yashnobod (2024-yilning mos davriga nisbatan 179,7 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 139,3 %), Shayxontoxur tumanı (120,0 %) va Yangihayot (119,2 %) kuzatildi.



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quydagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

